Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori i... DOI: 10.5281/zenodo.24317923

қўшимча қиймати яратувчи сохаларни шакллантириш лозим. Катта капитал маблағ талаб қиладиган корхоналарда унга мос иш кучи талаб қилинади. Мазкур йўналишда бугунги жахоннинг Америка қўшма штатлари (АҚШ), Хитой Халқ Республикаси (ХХР), Россия Федерацияси (РФ), Канада, Исроил, каби давлатларда сунъий интелект борасида анча муваффақиятли ишлар олиб борилмоқда. Тажриба кўрсатмоқдаки сунъий интелект халқ хўжалигининг барча тармоқларига тезлик билан кириб келмоқда.

Албатта бу сохада фаолият юритиш оддий холат бўлмай, балки моддий воситалар билан бир қаторда мутахассислар тайёрлаш лозим. Шунинг учун фарғона водийсининг олий таълим муассасаларида бу соха мутахасисларини тайёрлаш учун факультетлар ва улар негизида мазкур ихтисосликлар бўйича кадрлар тайёрлашни бошлаш лозим. Бизнингча ушбу йўналиши фарғона водийсидаги муаммоларни ижобий хал қилишда мухим омил бўлади деган фикрдамиз.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг “Янги Ўзбекистон” газета бош мухарририга берган интервьюси; 2025 й.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг Олий мажлисга мурожатномаси. Т., 29 декабр 2020 й.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг 2024 й 20 декабрда мамлакатимиздаги фаол тадбиркорлар билан учрашуви. 2024 й 21 декабр.
4. Ўзбекистон Республикасининг 2030 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси. Т; 2023 й.

SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH INVESTISIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Qorabayev Shuhratjon Axmadjonovich
Namangan davlat texnika universiteti
Menejment kafedrasi katta o‘qituvchisi,
ye-mail: koraboyev@mail.ru Tyel: +998982712989

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat korxonalarida investisiyalarining mohiyati, turlari va ulardan samarali foydalanish masalalari bayon qilingan. Muallif investitsiya tushunchasiga oid turli nazariy qarashlarni chuqur o‘rganib, ularning

Published: 24.05.2025
Cite this article: Qorabayev Shuhratjon Axmadjonovich (2025). Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish investisiyalaridan samarali foydalanish. Emro Science and Education, 2(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317923
© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

zamonaviy iqtisodiy sharoitdagi o‘rni va ahamiyatini qayta ko‘rib chiqadi. Maqolada ishlab chiqarish investitsiyalari nafaqat iqtisodiy o‘sish va texnologik yangilanishning asosiy drayveri, balki korxona raqobatbardoshligini ta’minlaydigan strategik resurs sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Investisiya, asosiy kapitalga investisiyalar, real investisiyalar, moliyaviy investisiyalar, aqliy investisiyalar

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida sanoat korxonalarini doimiy rivojlantirish va modernizatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda bugungi kundagi eng muhim vazifalardan biri sanoat korxonalarini tarmoq tuzilmasini takomillashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, har tomonlama rivojlantirish va shu asosda aholiga munosib turmush sharoitini yaratib berishdan iboratdir. Milliy iqtisodiyotda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish bozor iqtisodiyotini qaror toptirish va tovarlar bozorida kuchli raqobat muhitini yaratishning asosiy me’zonlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda respublikada 55,6 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 10,7 mingtasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 19,2 % i) Toshkent shahriga, 6,2 mingtasi (11,2 %) Toshkent viloyatiga, 5,6 mingtasi (10,1 %) Farg‘ona viloyatiga, 4,7 mingtasi (8,5 %) Samarqand viloyatiga va 4,4 mingtasi (7,8 %) Andijon viloyatiga to‘g‘ri kelmoqda.

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida respublika korxonalari tomonidan 885,8 trln so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,8 % ni tashkil etdi.

Shu sababli bugungi O‘zbekiston sanoatini zamon talablari asosida rivojlantirish, mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish va turini ko‘paytirish, hududlarda ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni keskin kengaytirish va chuqurlashtirish, mamlakatimizdagi mavjud xomashyo resurslaridan samarali foydalanish, ishlab chiqarish sohasiga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etgan holda import o‘rnini bosuvchi va eksportga mo‘ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish ayni kundagi muhim vazifalardan biridir. Bu vazifalarni amalga oshirishda sanoat tarmoqlariga investisiyalarni jalb qilish va shu asosida ularni ishlab chiqarish va boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Asosiy kapitalga investisiyalar – yangi asosiy fondlarni sotib olish va takror ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan xarajatlar majmuini bildiradi.

So‘nggi besh yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko‘rsatmoqdaki, u deyarli 2,3 barobarga ko‘paydi, ayniqsa joriy davrda o‘tgan yilga nisbatan 137,6 trln so‘mga ko‘p investitsiyalar o‘zlashtirildi[26].

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida jami 493,7 trln so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, 2023-yilnga nisbatan 127,6 % ni tashkil etdi. Asosiy kapitalga investitsiyalarning tarkibida 75,9 % yoki 374,7 trln so‘m investitsiyalar jalb etilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, korxona, tashkilot va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan 24,1 % yoki 119,0 trln so‘m moliyalashtirildi. Shuningdek, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 51,9 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 441,8 trln so‘m investitsiyalar o‘zlashtirildi.

“Investisiya” atamasi lotin tilidagi “invest” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib “qo‘yish”, «mablag‘ni safarbar etish», «kapital qo‘yilmasi» ma’nosini beradi. Keng ma’noda investisiya mablag‘ni ko‘paytirib va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi. Ko‘pgina hollarda «investisiya» tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat ob’yektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne’matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida ta’riflanadi. Investisiya deyilganda barcha turdagi milliy va intelektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati ob’yektlariga yo‘naltirilib daromad keltirishi yoki biror-bir ijobiy samaraga erishishi zarur. Investisiya kiritishdan asosiy maqsad daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishishdir.

O‘zbekiston Respublikasining “Investisiyalar va investisiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunida investisiyalarga quyidagicha ta’rif berilgan: “investisiyalar — investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari ob’yektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk ob’yektlariga bo‘lgan huquqlar, shuningdek reinvestisiyalar bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- mablag‘larni, shu jumladan pul mablag‘larini (shu jumladan chet el valyutasini), maqsadli bank omonatlarini, paylarni, ulushlarni, aksiyalarni, obligatsiyalarni, veksellar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni;

- ko‘char va ko‘chmas mol-mulkni (binolar, inshootlar, uskunalar, mashinalar va boshqa moddiy qimmatliklarni);

- intellektual mulkka doir mulkiy huquqlarni, shu jumladan u yoki bu ishlab chiqarish turini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan, texnik hujjatlar, ko‘nikmalar va ishlab

[26] *https://stat.uz/img/investitsiya-uzbek_p52304.pdf*

chiqarish tajribasi tarzida rasmiylashtirilgan, patentlangan yoki patentlanmagan (nou-xau) texnik, texnologik, tijoratga oid va boshqa bilimlarni, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa qimmatliklarni”[27].

Sanoat korxonalari iqtisodiy faoliyatiga jalb etiladigan investisiyalar bir qator belgilariga ko‘ra turlarga bo‘linadi (1-jadval).

Investisiyalarning turlari va ularning mazmuni[28]:

Investisiyalar turlari		Mazmuni
1. Kiritilish ob’yektiga ko‘ra:	a) real	Real investisiyalar moddiy ishlab chiqarish sohalariga, moddiy-ashyoviy faoliyat turlariga, korxona aktivlari(ko‘char va ko‘chmas mulklar)ni qo‘lga kiritish va ko‘paytirish amaliyotlariga uzoq muddatli mablag‘lar qo‘yish shakllarida amalga oshiriladi.
	b) moliyaviy	Moliyaviy investisiyalar turli xil moliyaviy aktivlarga, jumladan aksiyalar korporativ, infratuzilmaviy va davlat obligatsiyalariga, shuningdek qimmatli qog‘ozlarning boshqa turlariga kiritiladi.
	v) aqliy	Aqliy investisiyalar (nomoddiy aktivlarga investisiyalar) ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga, mutaxassislarni tayyorlashga, yangi texnologiyalardan foydalanish uchun lisenziyalarga, nou-xauga, taniqli kompaniyalarning savdo belgilaridan foydalanish xuquqlariga va hokazolarga kiritiladigan sarmoyalarni o‘z ichiga oladi.
2. Moliyalashtirish shakliga ko‘ra:	a) to‘g‘ridan-to‘g‘ri (bevosita)	To‘g‘ridan-to‘g‘ri investisiyalar deganda investorning investisiya ob’yektlarini

[27] Ўзбекистон Республикасининг “Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида”ги Қонуни. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.12.2019 й., 03/19/598/4221-сон. https://www.lex.uz/docs/4664142

[28] *Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган*

		tanlashda va ularni moliyalashtirishda bevosita ishtiroki tushuniladi.
	b) bilvosita	Bilvosita investisiyalar investisiyani talab qiluvchi sub’yektlarga turli ixtisoslashgan investisiya fondlari yoki boshqa moliyaviy vositachilar orqali o‘tadi.
3. Moliyalashtirish muddatiga ko‘ra:	a) qisqa muddatli	Bir yildan ortiq bo‘lmagan muddatga kiritilgan kapital
	b) o‘rta muddatli	1 yildan 5 yilgacha bo‘lgan muddatga kiritilgan kapital
	v) uzoq muddatli	5 yildan ortiq bo‘lgan muddatga kiritilgan kapital
4. Investorlarning mulkchilik shakliga ko‘ra:	a) davlat	Davlat investisiyalari respublika va mahalliy xokimiyat va ma’murlar tomonidan byudjet, byudjetdan tashqari fondlar va jalb qilingan mablag‘lar, shuningdek davlat korxonalari tomonidan o‘z mablag‘lari va jalb qilingan mablag‘lar hisobidan kiritiladigan sarmoyalar hisoblanadi.
	b) xususiy	Xususiy investisiyalar deganda fuqarolar tomonidan, shuningdek nodavlat mulkchilik shakllariga ega bo‘lgan korxonalar tomonidan kiritiladigan sarmoyalar tushuniladi.
	v) qo‘shma	Pod sovmestnыmi investisiyami ponimayutsya vlojeniya sredstv, osuщyestvlyayemыye sub’yektami dannoy stranы i inostrannыx gosudarstv. Qo‘shma investisiyalar milliy iqtisodiyotga ushbu mamlakat sub’yektlari hamda xorijiy davlatlar tomonidan kiritilgan sarmoyalardir.
5. Risk darajasiga ko‘ra:	a) kam riskli	Bunday investisiyalar investorga nisbatan past daromadni ta’minlaydi va past tavakkalchilikka ega bo‘lgan investisiya loyihalariga mablag‘ kiritish bilan izohlanadi (masalan mavjud ishlab chiqarish

		quvvatlarini almashtirish orqali ishlab chiqarish harajatlari darajasini pasaytirish)
	b) yuqori riskli	Yuqori riskli (venchur) investisiyalar investisiya qilingan mablag‘lar egasiga nisbatan yuqori foyda keltiradi (yangi mahsulot ishlab chiqarish, yangi bozorlarni yegallash). Biroq investorning loyihaga kiritgan mablag‘larini yo‘qotish yehtimoli ko‘proq bo‘ladi.
	v) risksiz	Risksiz investisiyalar ishlab chiqarish va tijorat xatarlarini maksimal darajada kamaytirishni ta’minlaydi (masalan, hukumat buyurtmasini bajarish)
6. Xududiy belgisiga ko‘ra:	b) ichki	Mamlakat ichidagi investisiyalar (ichki investisiyalar) ma’lum bir mamlakatning hududiy chegaralarida joylashgan investisiya ob’yektlariga sarmoyalar kiritishni anglatadi.
	a) tashqi	Tashqi investisiyalar (chet yel investisiyalari) deganda ma’lum mamlakatning hududiy chegaralaridan tashqarida joylashgan investisiya ob’yektlariga sarmoyalar kiritish tushuniladi.
7. Moliyalashtirish bosqichlariga ko‘ra:	a) boshlang‘ich	Boshlang‘ich investisiyalar - korxonani tashkil yetish bilan bog‘liq loyihani moliyalashtirish uchun investisiyalardir.
	b) ekstensiv	Ekstensiv investisiyalar – ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga yo‘naltirilgan investisiyalardir
	v) reinvestisiyalar	korxona aylanma mablag‘lari tarkibini saqlab qolish maqsadida yangi ishlab chiqarish vositalarini sotib olish uchun bo‘sh turgan resurslarni qaytadan yo‘naltirish
	g) yalpi investisiyalar	Yalpi investisiyalar boshlang‘ich investisiyalar va reinvestisiyalardan tashkil topadi.

Investisiyalarning ko‘rsatilgan har bir turi bajaradigan funksiyasiga va jalb etish yo‘nalishiga ko‘ra alohida mazmunga ega. Jumladan:

-real investisiyalar moddiy ishlab chiqarish sohalariga, moddiy-ashyoviy faoliyat turlariga, korxona aktivlari(ko‘char va ko‘chmas mulklar)ni qo‘lga kiritish va ko‘paytirish amaliyotlariga uzoq muddatli mablag‘lar qo‘yish shakllarida amalga oshiriladi;

-moliyaviy investisiyalar turli xil moliyaviy aktivlarga, jumladan aksiyalar korporativ, infratuzilmaviy va davlat obligatsiyalariga, shuningdek qimmatli qog‘ozlarning boshqa turlariga kiritiladi;

- aqliy investisiyalar (nomoddiy aktivlarga investisiyalar) ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga, mutaxassislarni tayyorlashga, yangi texnologiyalardan foydalanish uchun lisenziyalarga, nou-xauga, taniqli kompaniyalarning savdo belgilaridan foydalanish xuquqlariga va hokazolarga kiritiladigan sarmoyalarni o‘z ichiga oladi.

Korxonalar xo‘jalik faoliyatini rivojlantirish uchun kiritiladigan investisiyalar ularning pirovard maqsadini ro‘yobga chiqarishi, ya’ni kelajakda yuqori foyda olishni ta’minlashi lozim. Shu sababli investisiyalarni korxonalar samaradorligini oshirishdagi roli quyidagilardan iboratdir:

- ishlab chiqarish salohiyatini shakllantirishning asosiy manbai;
- korxonaning iqtisodiy rivojlanishining strategik maqsadlarini amalga oshirishning asosiy mexanizmi;
- xo‘jalik sub’yektlari aktivlari strukturasini optimallashtirishning bosh mexanizmi;
- ijtimoiy rivojlanish masalalarini hal etish mexanizmlaridan biri;
- innovasion siyosatni amalga oshirishning bosh instrumenti;
- oddiy va kengaytirilgan ishlab chiqarishni ta’minlashning asosiy mexanizmi;
- korxonaning bozor qiymatini oshirishning muhim sharti.

Investisiyalar samaradorligini ta’minlashda bir qator shartlar bajarilish lozim. Investisiya kiritishda, avvalo:

- investisiya faoliyati sub’yektlarning mustaqilligi va tashabbuskorligining ta’minlanishi;
- kiritilayotgan moddiy ne’matlarga investisiya maqomini berish (fuqarolarning o‘zlarining ehtiyojlarini qondirish uchun sotib olgan buyumlari investisiya bo‘la olmaydi);
- qonun bilan belgilangan investisiya faoliyatini amalga oshirish imkoniyati yaratilishi zarur bo‘lib hisoblanadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan xolda investisiya loyihalari natijadorligini ta’minlash uchun quyidagi tamoyillarga amal qilish tavsiya etiladi:

1. Korxonani boshqarishning barcha tizimlarining ahamiyatini hisobga olish. Investision resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanish umuman korxona samaradorligini oshirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

2. Korxonani rivojlantirishning strategik yo‘nalishini hisobga olish. Qabul qilingan rivojlanish konsepsiyasiga muvofiqligini tekshirmasdan hech qanday boshqaruv qarori qabul qilinmasligi kerak.

3. Boshqaruv qarorlarining dolzarbligi va dinamikligini t a’minlash. Har bir qaror korxona rivojlanishi uchun muhim ko‘rsatkichlar - rentabellik, raqobatbardoshlik, ishlab chiqarish hajmi va boshqalarni hisobga olgan holda qabul qilinishi kerak.

4. Investisiya resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish strategiyasini aniq muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi kompleks yondashuv.

5. Tizimli yondashuv. Har qanday investisiya qarori loyihaning barcha ishtirokchilari - pudratchilar, investorlar, vositachilar, kreditorlar, yetkazib beruvchilar, mijozlar va boshqalarning manfaatlarini hisobga olishi kerak.

6. Qaror qabul qilishda moslashuvchanlik. Doimiy o‘zgaruvchan tashqi va ichki omillar sharoitida yagona to‘g‘ri qaror qabul qilish qiyinligini hisobga olgan holda qabul qilingan qarorlarni qayta ko‘rib chiqish va o‘zgartirishga tayyor bo‘lishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Investisiyalar va investisiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2019 y., 03/19/598/4221-son. https://www.lex.uz/docs/4664142.

2. Mahmudov E.X. «Korxona iqtisodiyoti» - T.: TDIU 2004. - 208 bet.

3. Abdurahim Ortiqov. «Sanoat iqtisodiyoti». O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2006 – 220 bet.

4. К. В. Балдин, А. В. Барышева, Е. Л. Макриденко. Инновационный менеджмент. «Дашков и К°», 2009. стр.40

5. Н.Ю.Ковалёвская Управление инвестиционными проектами. Иркутск. Издателство «БГУ»,2017. стр. 112

6. Dadaboyev, T. Y., Qoraboyev, S. A., & Mullabaev, B. B. (2017). CORPORATE MANAGEMENT AS THE FACTOR OF INVESTMENT ATTRACTION. Научное знание современности, (5), 77-80.

7. Qoraboyev, S. (2017). Specific features of the development of innovative processes in the national economy. Научный прогресс, (3), 22-23.

8. Korabayev, Sh. A., & Alabayev, S. I. (2017). ISHLAB CHIQARISH HARAJATLARINI KAMAYTIRISHDA PERSONALNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI. Научное знание современности, (4), 165- 168.

9. Ismatov, R. O., Dadaboev, T. Y., & Karabaev, S. A. (2019). Investment possibilities in agricultural networks. Theoretical & Applied Science, (2), 350-355.